**XALQ DEPUTATLARI SHOʻRCHI TUMANI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2025-yil 14-aprel VII-6-54-8-120-K/25 Shoʻrchi tumani

**Shoʻrchi tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash toʻgʻrisida.**

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan oʻtkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni oʻtkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda tuman hokimining 2024-yil 12-noyabrdagi 99-8-120-F/24 sonli farmoyishiga asosan Respublika aerogeodeziya markazi Surxondaryo hududlararo boʻlinmasi tomonidan Surxondaryo viloyati Shoʻrchi tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniga koʻra tumanning umumiy perimetri 190906 metr, tuman umumiy maydoni 77042.66 gektar ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

1. Alpomish qishlogʻining umumiy perimetri 43528,39 metr, umumiy maydoni 2589,05 gektar.
2. Baxtlitepa qishlogʻining umumiy perimetri 29717,11 metr, umumiy maydoni 3030,37 gektar.
3. Dalvarzin qishlogʻining umumiy perimetri 43123,70 metr, umumiy maydoni 2253,74 gektar.
4. Elobod qishlogʻining umumiy perimetri 39289,22 metr, umumiy maydoni 1958,88 gektar.
5. Jaloyir qishlogʻining umumiy perimetri 25129,89 metr, umumiy maydoni 1633,76 gektar.
6. Qoʻldosh qishlogʻining umumiy perimetri 34389,55 metr, umumiy maydoni 3605,41gektar.
7. Savur qishlogʻining umumiy perimetri 26719,01 metr, umumiy maydoni 1298,73 gektar.
8. Shoʻrchi qishlogʻining umumiy perimetri 38896,03 metr, umumiy maydoni 4209,70 gektar.
9. Sohibkor qishlogʻining umumiy perimetri 142277,83 metr, umumiy maydoni 50047,12 gektar.
10. Yangibozor qishlogʻining umumiy perimetri 75521,89 metr, umumiy maydoni 4134,02 gektar.

11. Sho‘rchi shahrining umumiy perimetri 15694,81 metr, umumiy maydoni 791,94 gektar.

12. Yalti shaharchasining umumiy perimetri 10619,55 metr, umumiy maydoni 265,42 gektar.

13. Xushchekka shaharchasining umumiy perimetri 4581,84 metr, umumiy maydoni 64,73 gektar.

14. To‘la shaharchasining umumiy perimetri 9239,91 metr, umumiy maydoni 127,51 gektar.

15. Katta Savur shaharchasining umumiy perimetri 7522,22 metr, umumiy maydoni 112,77 gektar.

16. Karvon shaharchasining umumiy perimetri 6014,78 metr, umumiy maydoni 125,13 gektar.

17. Joyilma shaharchasining umumiy perimetri 10372,98 metr, umumiy maydoni 186,24 gektar.

18. Jarqishloq shaharchasining umumiy perimetri 8810,64 metr, umumiy maydoni 153,97 gektar.

19. G‘armaqo‘rg‘on shaharchasining umumiy perimetri 6131,88 metr, umumiy maydoni 91,82 gektar.

20. Qo‘shtegirmon shaharchasining umumiy perimetri 6546,37 metr, umumiy maydoni 122,84 gektar.

21. Go‘zallik shaharchasining umumiy perimetri 8756,51 metr, umumiy maydoni 239,52 gektar.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 24-moddasiga asosan Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi Sho‘rchi tumani bo‘limi boshlig‘i J.Bobomurodovning hisobotini tinglab, muhokama qilinib, xalq deputatlar tuman Kengashi **qaror qiladi:**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi Sho‘rchi tuman bo‘limi boshlig‘i J.Bobomurodovning Sho‘rchi tumanining ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi hisoboti hamda Respublika aerogeodeziya markazi Surxondaryo hududlararo bo‘linmasi tomonidan Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan Sho‘rchi tuman komissiyasining 2025-yil 3-fevraldagi 05-05/04-sonli yig‘ilish bayoni tasdiqlansin.

**2.** Xalq deputatlari tuman Kengashining qarori tuman hokimligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

**3.** Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashidan so‘ralsin.

**4.** Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi

MAMASHUKUROV
OLIMJON
KAYUMOVICH

Xalq deputatlari Sho‘rchi tumani
Kengashining
2025-yil 14-apreldagi
VII-6-54-8-120-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumanining ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari**
**SXEMAS**

*Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanining*
*ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari*

**SXEMASI**

**Shartli belgilar**

- *Tumanlar chegarasi*
- *Qishloqlar (Ovullar) chegaralari*
- *Shaharchalar chegaralari*

**Chegaradosh yerlar izohnomasi**

| | |
|---|---|
| A dan B gacha | *Denov tumani yerlari* |
| B dan D gacha | *Uzun tumani yerlari* |
| D dan E gacha | *Qumqo'rg'on tumani yerlari* |
| E dan A gacha | *Oltinsoy tumani yerlari* |